

SO‘ZLARNING BIRIKUVCHANLIGI LUG‘ATI

Baxtiyor Mengliyev Rajabovich

ToshDO‘TAU, Amaliy tilshunoslik kafedrası mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor

Javlon Ibragimov (QarDU)

Zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri so‘zlarning birikuvchanligi masalasidir. So‘zlarning birikuvchanlik xususiyati deganda uning gap, so‘z birikmasi yoki boshqa sintaktik qurilmada boshqa so‘zlar qurshovida qo‘llanishidir. Bu xususiyat ma‘lum bir tilning leksik, grammatik va boshqa lingvistik qoidalari bilan tartibga solinadi. Ya‘ni bunda tilning bir nechta bo‘limlari (leksikologiya, sintakasis, frazeologiya, morfologiya)ning o‘zaro hamkorligi zarurdir. Chunki birikmada so‘zlarning ma‘naviy muvofiqligi leksikologiyaga aloqador bo‘lsa, ularni biriktiruvchi morfologik vositalar va ularning nutqda qo‘llanishi morfologiya, sintaksis va uslubiyat kabilar bilan bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Iboralar ma‘nosining bir so‘zga teng kelishi esa, ularning gap qurilishida bir so‘z kabi maqomga ega bo‘lishini anglatadi.

So‘zning birikuvchanlik qobiliyati uning lug‘aviy ma‘nosiga ham bevosita bog‘liq. Leksik-semantik birliklar anglatadigan ma‘nosi bilan ma‘lum bir leksik paradigmalariga kiradi va boshqa birliklar bilan birikadi. Lug‘atlarda lingvistik nuqtayi nazardan so‘zlarni aniq tavsiflash tildagi so‘zlar alohida holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liqlikda mavjud bo‘lishiga asoslanadi. Lug‘atlashtirishda bu xususiyatlarni hisobga olish leksik birliklarning turli xususiyatlarini, shu jumladan, birikish xususiyatlarini yanada izchil va tizimli aks ettirishga imkon yaratadi. Lug‘at maqolasidagi bosh so‘z birikuvchanlik xususiyatlarining berilishi uning semantik tuzilishini to‘liq ifodalashga yordam beradi, chunki leksik birlik birikuvchanligi tadqiqi, nazarimizda, uni tahlil qilishning asosiy vositasidir. Shu o‘rinda so‘z ma‘nosi va uning birikuvchanligi XX asr o‘rtalaridan boshlab dunyo tilshunosligida eng dolzarb masala bo‘lib kelayotganligi ta‘kidlash joiz. Bu lug‘aviy birliklarning matndagi o‘zaro bog‘liqligining o‘ziga xosligi va muqarrarligi ularning deyarli barcha paradigmatic munosabatlarida aks etishi bilan bog‘liq. Darhaqiqat, birikuvchanlikning leksikologiya, sintaksis kabi bo‘limlar bilan bog‘liqligi uning muayyan tilda batafsil tadqiq qilinishi sanalgan tilshunoslik sohalari haqida ham juda qimmatli ilmiy xulosalar chiqarishga ko‘maklashadi. So‘z ma‘nosi tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda so‘zlar birikuvchanligidan foydalanish ham aynan shunga asoslanadi. Shunday qilib, so‘zni semantik tahlil qilish vositalaridan biri sifatida so‘zlar birikuvchanligining ahamiyati juda katta. Ammo hozirgi kunda bu sohada amaliy va nazariy tadqiqotlarning kamligi birikuvchanlik lug‘atlari va ularga oid tadqiqotlarning zarurligini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda so‘zlar birikuvi masalasi tadqiqi (shu bilan birga birikuvchanlik lug‘atlarini yaratishning ham) dolzarbligini bu soha zamonaviy

tilshunoslikning amaliy-nutqiy yo'nalishlari, bevosita muloqot, so'z ma'nosi taraqqiyoti, shakllanishi, nutqda qo'llanishi kabi muammolarni o'rganishga e'tiborni qaratishi bilan asoslanishi mumkin. Til birliklarining birikuvchanlik xususiyatlarini umumlashtirish va tasniflash zamonaviy tilshunoslik zarurati hisoblanadi. Shuningdek, chet tillarini o'qitish ko'lamining kengayishi so'zlar birikuvchanligi yuzasidan qiyosiy-tipologik tadqiqotlar o'tkazish talabini keltirib chiqaradi. Keyingi bosqichlarda esa tildan foydalanishning turli sohalarida maxsus birikuvchanlik lug'atlari yaratish zaruratini paydo qiladi.

So'zlar birikuvchanligiga doir tadqiqotlar o'tkazish va birikuvchanlik lug'atlarini yaratishning yana bir zarurati hozirgacha bu sohada boy manba to'planganligi, ularni tizimlashtirish lozimligi bilan belgilanadi. Ammo bu faoliyat (so'zlar birikuvchanligi tadqiqi) so'zlar birikuvchanlik masalasining murakkabligi, vaqt o'tishi bilan so'zlar birikuvchanligiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillarning tadqiq qilinmaganligi, so'zlarning lug'aviy birikuvchanligi tamoyillari qanday shakllanganligi aniqlanmaganligi kabi muammolarga duch keladi va ularni hal etish bilan amalga oshadi. Albatta, bu kabi muammolarni ham yaratilajak mukammal birikuvchanlik lug'atlari va birikuvchanlikka doir olib boriladigan tadqiqotlar yechadi.

So'zlar birikuvchanligini aks ettiradigan lug'atlarga ehtiyoj sezadigan sohalardan biri tilshunoslikka (yoki umuman tilga) oid ma'lumotlardan foydalanadigan dastur yaratuvchilaridir. Ular ana shu ma'lumotlarning yetishmasligi, ba'zan umuman mavjud emasligi muammosiga duch keladilar. Ma'lumotlar deganda turli tipdagi lug'atlar, korpus ma'lumotlari, grammatik qo'llanmalar, umuman, yaratilajak dastur uchun so'z haqidagi har qanday ma'lumot nazarda tutilmoqda. Aynan so'z haqidagi ma'lumotlar boshqa sohalarda til, uning o'ziga xosligi haqida tasavvur hosil qilishda muhim hisoblanadi. Tilning har bir sathida so'z o'z ma'lumotini tashiydi (fonetik, morfologik, sintaktik, semantik va h.k.z.). Semantik ma'lumot deganda so'zning izohli lug'atlarida so'z izohi sifatida berilgan ma'lumotlar to'plamini tushunishimiz mumkin. Bunda tarjima lug'atlari ham turli tillardagi so'zlarning izohini beruvchi avtomatik qidiruvlarda zarur bo'lgan muhim ma'lumot manbayi hisoblanadi. Sintaktik ma'lumotlar esa so'zlarning birikuvchanlik imkoniyatlari, xususiyatlari va ularning voqelanishi natijasida hosil bo'ladigan qurilmalar haqidagi axborot jamlanmasidir. Birikuvchanlik lug'atlari aloqa qoliplari (masalan, qaratqich kelishigidagi so'zning egalik shaklidagi so'zga birikishi; nisbat shakllarining fe'llar birikish xususiyatlariga ta'sir qilishi kabi ma'lumotlar birikuvchanlik lug'atlarida beriladi), lug'aviy va sintaktik valentliklar mosligi, iboralar, shuningdek boshqa ko'chma ma'nodagi so'zlarning birikish-biriktirish xususiyatlarini aks ettiruvchi lug'atlardir (ya'ni, maxsus birikuvchanlik lug'atlari). Birikuvchanlik lug'atlarining muhimligi shundaki, ular asosida sintaktik xususiyatlarni aks ettiruvchi boshqa lug'atlarni ham yaratish mumkin.

Birikuvchanlik lug'atlaridan olinadigan sintaktik ma'lumotlar tabiiy tillar elektron dasturlarda muhim (sun'iy tillar yaratilsa ham, avvalo, elektron dasturlarga mos kelishi hisobga olinishi shubhasiz) hisoblanadi. Chunki birikuvchanlik haqidagi maxsus qo'shimcha ma'lumotlar birikma ma'nosidagi polisemantiklik bilan bog'liq noaniqliklarni bartaraf etadi, aynan mana shu tipdagi noaniqliklar avtomatik qidiruv bilan bog'liq asosiy muammolardan biridir. Quyida avtomatik qidiruvda tushunmovchilik keltirib chiqaradigan bir nechta misollarni keltiramiz:

Karim stoldan nonni oldi va tushirib qo'ydi.

Ushbu misoldagi *u* olmoshi katta ehtimol bilan *non* so'zini almashtirmoqda. Aksincha bo'lishiga, ya'ni *stolni* tushirib qo'yishiga ishonish qiyin. Yana bir gapni tahlil qilamiz:

Karim nonni stoldan oldi va uni artidi.

Endi *u* olmoshi *stol* so'zi o'rnida qo'llangan ekanligini shu tilda so'zlashuvchilar, umuman dunyo haqida, ya'ni odatda, stolning tushib ketmasligi, nonning artilmasligi haqida tasavvurga ega insonlar tushunadi. (Stolning, masalan, tashilayotganda tushib ketishi, nonning artilishi (masalan, tushirib qo'yilganda g'uborni ketkazish maqsadida) kamdan-kam hollar bu yerda hisobga olinmadi). Ammo kompyuter, smartfon kabi elektron jihozlar bunday bilimga ega emas. Biroq bu ma'lumotlarni birikuvchanlik lug'atlari yordamida bemalol modellashirish mumkin. Chunki birikuvchanlik lug'atlarida *nonni tushirib qo'ymoq*, *stolni artmoq* kabi birikuvlar qayd etilgan bo'ladi. Shuningdek, dasturchilar *mebelni artmoq*, *yegulikni tushirib qo'ymoq* birikmalarini ham umumlashtirgan holda avtomatik qidiruv tizimiga kiritishlari mumkin. Bunda stol mebelning bir turi, non ham umuman olganda ovqat ekanligi haqidagi ma'lumotlar qo'l kelishi tabiiy.

Birikuvchanlik lug'atlarini muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin bo'lgan yana bir soha – avtomatik tarjima sohasidir. Aslida ikkita (tarjima amalga oshirilayotgan tillardagi lug'atlar) katta birikuvchanlik lug'atlari va ularning muvofiqligi bexato tarjima uchun yetarli bo'lishi lozim. Hatto unchalik katta bo'lmagan lug'atlar ham ba'zan mukammal tarjima uchun yetarli bo'ladi. Masalan, *to pay attention* – (so'zma-so'z “*diqqatni to'lamoq*” tarzida o'giriladi) rus tiliga *обратить внимание*, ispan tiliga *prestar atención* (so'zma-so'z *e'tiborni jalb qilmoq*) shaklida o'giriladi. O'zbekchaga *to pay attention* birikmasi avtomatik tarjimada “*e'tibor bermok*” tarzida o'giriladi. Bu birikma mazkur tillarga so'zma-so'z o'girilganda tushunmovchiliklar yuzaga chiqar edi. Bunda, albatta, birikuvchanlik haqidagi ma'lumotlar muhim o'rin tutadi.